



ERGONIMLARNING LISONIY MAQOMI

Nuriddinova N.

Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Tayanch soʻzlar: ergonim, ergonim birlik, oʻzbek tilida ergonimlar, leksik-semantik xususiyatlar.

Ключевые слова: эргоним, эргонимическая единица, эргонимы в узбекском языке, лексико-семантические особенности.

Key words: ergonim, ergonim unit, ergonims in Uzbek, lexical-semantic features.

Barchamizga maʼlumki, nutqimizda har bir obyekt yoki subyektning tilshunoslik nuqtayi nazaridan oʻz nomlanishi mavjud. Bu nomlar ana shu predmet yoki shaxslarning maʼlum bir xususiyatlarini nazarda tutgan holda qoʻllaniladi. Shu narsani ham taʼkidlab oʻtish lozimki, hayotimizda roʻy berayotgan ijobiy oʻzgarishlar negizida shakllanayotgan mazkur obyektlar oʻzining munosib nomiga ega boʻlishi kerak. Bugun biz siz bilan tadqiq qilmoqchi boʻlgan mavzu joy nomlariga taalluqli boʻlib, xususan, korxonalar, tashkilot, muassasa nomlari, uyushma, firma va shu kabi qator oʻrinlarni nazarda tutadi. Tilshunoslikda bunday nomlar ergonimlar deb yuritiladi. Ushbu soʻzning lugʻaviy maʼnosiga toʻxtalishdan oldin, avvalo, uning etimologiyasi haqida maʼlumotga ega boʻlsak, ergonimlarning mohiyatini ochib berishga muammosiz yondashamiz. Ergonim atamasi birinchi marta 1978-yilda rus tilshunosi N. V. Podolskaya tomonidan qoʻllanilgan. Keyinchalik, XX asrning 90-yillariga kelib, ergonimlar ilmiy tadqiqotning mustaqil yoʻnalish sifatida oʻrganila boshlandi. Bu tushuncha qadimgi yunon tilidan olingan boʻlib, ergo «ish, savdo» va «ism, unvon» soʻzlaridan olingan. Biroq mohiyatan uni «ish, mehnat» deya tarjima qilish maqbulroqdir. Ergo soʻzining oʻzi ham yunoncha mehnat maʼnosini anglatadi. Ergonimlar ham shu qatordan joy olib, kishilarning mehnat birlashmalari nomlarini oʻz ichiga qamrab oladi. Bu soha birlashmalar, tashkilotlar, muassasalar, korporatsiyalar, jamiyatlar, doʻkonlar, idoralarning nomlarini oʻrganadi. «Ergonim» atamasining bir qancha variantlari



mavjud. D. A. Yalovets-Konovalova “tijorat korxonasi nomi”, Korshunov V. A. va Nikolayeva T. K. “firmino” deb nomlaganlar. Yalovets-Konovalova D. A. ergonimlarni “jamoat birlashmalarining belgisi” desa, Zemskova S. V. ergonimiyani “mintaqaning sanoat va iqtisodiy obyektlari nomlari majmui” deya ta’riflagan.

Ilmiy manbalarda ergonim termini bilan aloqador bo‘lgan ergonimika, ergonimiya, ergonimikon terminlari ham uchraydi. M.Zaxarova-Sarovskaya ergonim termini va u mansub bo‘lgan tizim haqida to‘xtalar ekan, tadqiqotlarda ergonimika, ergonimiya, ergonimikon terminlarining qo‘llanishida har xilliklar mavjudligini ta’kidlaydi. Ergonim har qanday tilshunoslik termini kabi, tildagi ma’lum bir ilmiy dunyoqarashni aks ettiruvchi tushunchalarni ifodalovchi semiologik sistema birligidir. Uning semantik strukturasi esa ergonimni xarakterlovchi potensial belgilarning umumiyligi asosida reallashadi. Ergonimlar iqtisodiy va siyosiy omillar ta’sirida shakllanadi, dunyoning lingvistik manzarasining rivojlanishida ma’lum bir o‘rinni egallaydi va uning «tarixiy parchasi»ni aks ettiradi.

Ergonimlarni o‘rganishda qadimiy tarixga ega bo‘lgan rus tilshunosligida esa ergonimlar aniq yo‘nalish va harakat yo‘lida birlashgan insonlar birlashmasini ifodalaydigan atoqli ot deb ta’riflanadi. Rus tilshunoslari ergonimlarni aniq maqsad yo‘lida birlashgan amaliy sohalar birlashmasining nomlari deyishadi. Nemis tilshunosligida bu atama nafaqat uyushma, balki ayrim shaxslarning birlashuvini ifodalash uchun qo‘llaniladi. Mahsulot va xizmatlarning (mahsulot, kiyim, mashina), san’at asarlari nomlari, ko‘rsatuvlar, bolalar o‘yinchoqlari va savdo nuqtalari (kafe, do‘kon, sartareshxona) kabi nomlarni ham bildiradi. Ergonimlar tashkilot va muassasa nomlari bo‘lib, onomastikaning turli sohalarida chuqur tadqiq etiladi hamda ularning o‘rganilishi tarixiy manbalarni boyitadi.

Hozirgi kunda amalga oshiriladigan ishlar o‘zbek tili leksikasining milliy, shakliy hamda uslubiy jihatdan rivoji uchun xizmat qiladi. Muhtaram Prezidentimiz e’tirof etganlaridek: “...Sharq donishmandlari aytganidek: “Eng kata boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros - bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!”. Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak ma’naviyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak.

Hozirgi davrda turmushimizda ko‘plab yangi savdo markazlari, tadbirkorlik subyektlari, ovqatlanish shoxobchalari, oromgohlar qad ko‘tarmoqda va ular turli-tuman nomlar bilan atalmoqda. Onomastikaning turlari nihoyatda keng doirani qam-rab olib, uning sohaviy qatlamlari jadal o‘rganishga kirishildi.

Masalan, antroponimlar (shaxs ismlari, familiya, taxallus, laqablari), toponimlar (geografik nomlar), urbonimlar (shahar mikrotoponimlari: ko‘cha, sayrgoh, maydon, ko‘prik va h.k.), pragmatonimlar (tovar nomlari), poreyonimlar (transport vositalari nomlari), gemeronimlar (ommaviy axborot vositalari nomlari), geortonimlar (tadbirlar nomlari), faleronimlar (mukofot, rag‘batlantirish nomlari), artionimlar (san‘at asarlari nomlari) va boshqalar.

Tilshunoslikda ergonimlar onomastikaning alohida tarmog‘i sifatida XX asrning 90- yillaridan boshlab maxsus tadqiq qilina boshlandi. Bu yo‘nalishda so‘nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda ergonimlarning struktur-semantik, derivatsion xususiyatlari qatorida, pragmatik, lingvopoetik imkoniyatlari ham ochib berildi. Ergonim xususiy nom sifatida faoliyat ko‘rsatganligi sababli predmetlarni nomlash va ularni bir-biridan farqlashga xizmat qiladi. Ular istagan bir so‘z turkumidan hosil bo‘lishi mumkin (sifat, fe‘l, olmosh, ravish) Ushbu so‘z turkumlari substantivatsiya natijasida ot turkumiga aylanadi. Ergonimlar bir so‘zdan tortib, butun bir gap tarzida shakllanishi mumkin. O‘z navbatida, bu hodisa o‘zgaruvchan va kam yashovchandir. Shuningdek, ular, asosan, ramziy nomlash xususiyatiga ham ega. Ularning o‘zgaruvchanligiga asosiy sabab obyekt nomlarining kengayishi, xizmat ko‘rsatish usulining yangilanishi va bozordagi raqobatning kuchayishidir. Ushbu omillar obyekt nomlarining yangilanishiga, takomillashishiga, ba‘zan esa kasodga uchrashiga olib keladi. Ergonimlarning yasalishi turli tuzilmalar orqali amalga oshadi. Morfemizm doirasida turli qo‘shimchalar yordamida shakllanadi: “Chorvachilik”, “Kommunalchi”, “Aloqachi”, “Bog‘bon”, “Paxtakor” kabi.

Bir tomondan olib qaraganda ergonimlarning turli toifalari hayotimizdagi yangiliklarni ifodalash orqali leksik boyligimizning oshishiga ham o‘ziga xos hissa qo‘shayotir.

Ikkinchi tomondan ushbu holat keng ommaga tushunarli emas. Ularning katta qismi oddiy kishilarga tanish emas, balki mavhum tushuncha sifatida qabul qilinadi. Ularni izohlash, tadqiq qilish tilshunoslikning birinchi galdagi vazifasidir. Ergonimlar onomastik tizimdagi toponimlar bilan ham aloqadordir. Chunki savdo, ishlabchiqarish obyektlari, korxonalar va tashkilotlarning nomi u joylashgan hudud nomi bilan ham atalishi mumkin. Masalan, “Go‘zal” restorani Namangan shahrining Go‘zal dahasida joylashgan; “Chorsu” mehmonxonasi, “Rohat” avtosaloni, “Zarbdor” choyxonasi, “Sardoba” bozori kabi ergonimlari ham bunga misol bo‘la oladi.

Shunday qilib, ergonim terminining qo‘llanish xususiyatlari va uning atoqli otlarning bir turi sifatida onomastik makonda tutgan o‘rnini aniqlash natijasi



quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi: Ergonimlar voqelikning alohida obyektlarini qat'iy ravishda aniq nomlash uchun xizmat qiladi va bir obyektни boshqa bir hil obyektlardan ajratib turadi. Ergonim odatda nom asosida yotgan tushuncha bilan bevosita aloqaga ega emas. Ergonim ma'lum darajada, faqat nomlangan obyekt uchun «belgi» bo'lib, asosiy denotat bilan turli xil assotsiatsiyalarni keltirib chiqaradi.

Adabiyotlar:

1. Cotticelli, Paulo; Rizza, Alfredo (2018). *Language, Media and Economy in Virtual and Real Life: New Perspectives*. Cambridge Scholars. ISBN 9781527521452.
2. Яловец – Коновалова Д. А Названия коммерческих предприятий: ономаσιологическая классификация и функционирование в современном русском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Челябинск, 1997
3. Земскова С.В. Лексико-семантический и словообразовательный анализ эргонимов г.Тольятти Самарской области Российской Федерации: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Самара, 1996.
4. Захарова-Саровская М. В. К вопросу об эргонимии // Вестник Кемеровского государственного университета. – Кемерово, 2018. – №3. – С. 187-188.
5. Коттичелли, Пауло, Рицца, Альфредо (2018). Язык, медиа и экономика в виртуальной и реальной жизни: новые перспективы Кембриджские ученые.
6. “Коттичелли, Пауло, Рицца, Альфредо (2018). Язык, медиа и экономика в виртуальной и реальной жизни: новые перспективы Кембриджские ученые.
7. O'zbekiston prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasidan. “Xalq so'zi” gazetasi. 2020-yil 25-yanvar soni.
8. Шимкевич Н. В. Русская коммерческая эргонимия: прагматический и лингвокультурологический аспекты: Автореф. дисс. ... канд филол. наук. – Екатеринбург, 2002; Алиева Т. Н. Аббревиатурные неологизмы современного русского языка конца 90- х годов XX–XXI веков: семантико-деривационный аспект: автореф. Дисс. ... д-ра филол. наук. – Спб., 2003.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada ergonimlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari, ergonimik birliklar, o'zbek tilidagi ergonimik birliklarning alohida jihatlarini, ergonim nomlarni tanlashda e'tibor berilishi lozim bo'lgan jihatlar va ularning tasnifiga alohida to'xtalinadi. Bundan tashqari, maqolada berilayotgan fikrlar ergonim birliklar yordamida dalillanadi. Ergonim so'zlarning semantik-leksik xususiyatlari lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq qilinadi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье основное внимание уделяется эргономике и ее особенностям, эргономическим единицам, особенностям эргономических единиц в узбекском языке, аспектам, на которые следует обратить внимание при выборе эргономических названий и их классификации. Кроме того, идеи, приведенные в статье, подтверждаются на примере эргономичных агрегатов. Семантико-лексические особенности эргономических слов изучаются с лингвистической точки зрения.

SUMMARY

This article focuses on ergonomics and their specific features, ergonomic units, special aspects of ergonomic units in the Uzbek language, aspects that should be paid attention to when choosing ergonomic names and their classification. In addition, the ideas given in the article are proven using ergonomic units. Semantic-lexical features of ergonomic words are studied from a linguistic point of view.